

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHIDAN KASBIY
SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI

SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, laboratoriya faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi, boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 87-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 233-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy

test topshirig'ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 120 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi boshlang'ich ta'lim yo'nalishining asosiy mazmun yo'nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari umumiy ona tili, o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar, tarbiya, boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko'nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlari hamda fan bo'yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1.O'qish savodxonligi		
1.1. Matnni o'qib tushunish va mantiqiy tahlil	- Ilmiy va badiiy matnlardan asosiy g'oya va faktlarni aniqlash; - Asarni mantiqiy tahlil qiladi va xulosa chiqarish; -Asar mavzusi, obraz va uslubiy yondashuvlarini aniqlash	3
1.2. Xalq og'zaki ijodi	– Og'zaki ijod namunalarini mazmun, g'oya va shakl jihatdan tahlil qilish;	1
1.3. Adabiy janrlar. Badiiy san'atlar	-Adabiyot nazariyasiga oid bilimlarni qo'llash; -Janr xususiyatlari, badiiy san'atlarni aniqlab farqlash;	2
1.4. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti vakillarining hayoti va ijodi	-Adabiy taqqoslash – o'zbek, jahon adabiyoti va zamonaviy namoyandalarning asarlarini mazmuni va badiiy jihatini aniqlash; -Personajlar, voqealarni tahlil qilish; -Matndagi davriy izchillik, xronologiya, voqealar ketma-ketligi;	3
2. Ona tili		

2.1. Nutq tovushlari, imlo, fonetik hodisalar.	-Fonetik va orfografik – tovushlarni tahlil qilish; -Imlo qoidalarini amalda qo‘llash, fonetik hodisalarni farqlay olish;	2
2.2. O‘z va ko‘chma ma’no, omonim, paronim, sinonim, antonim, ibora	-So‘zlarning leksik ma’nolari, o‘z va ko‘chma ma’noni farqlash; -So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini aniqlash, ibora va tasviriy ifodalarning ma’nosini tahlil qilish;	2
2.3. Asos va qo‘shimchalar. Qo‘shimchalar tasnifi.	-So‘z tarkibini tahlil qilib, so‘zlarni ma’noli qismlarga ajrata olish. -So‘z yasovchi, lug‘aviy va so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarning vazifasini aniqlash hamda ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash;	2
2.4. Mustaqil so‘z turkumlari. Yordamchi so‘z turkumlari. Alohida olingan so‘zlar.	-Mustaqil so‘z turkumlari. Yordamchi so‘z turkumlari. -Ular turlarini tahlil qilish, shakldoshlik va ma’nodoshlikni farqlash, sodda yasama so‘zlarni aniqlash. -Grammatik birliklarni morfologik tahlil qilish – Mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini grammatik belgilar asosida farqlash;	4
2.5. Tinish belgilari	- Tinish belgilarining turlarini, qo‘llanish qoidalarini bilish; gapda tinish belgilarining ma’no va ohangga ta’sirini anglay oladi hamda yozma nutqda tinish belgilaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish;	1
2.6. So‘z birikmasi, gap, gap bo‘laklari.	- Sintaktik tuzilmani – gap tarkibini, bog‘lanish turlarini, gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo‘laklarning gapdagi ahamiyatini tahlil qilish.	1
3. Matematika		
3.1. Natural sonlar. Kasr sonlar. O‘nli kasrlar.	-Natural, butun va kasr sonlarni aniqlay olish; -Raqamlarning o‘rin qiymatini tushunish; -Butun va kasr sonlar o‘rtasidagi farqlash; sonlarni tartiblash; Kasr va butun sonlarni taqqoslash; -Berilgan sonni rim raqamlari bilan yozish;	4
3.2. Amallar va algebraik mulohaza	-O‘zgaruvchilar va algebraik ifodalarni aniqlash; -Tenglama va tengsizlikni tuza olish; -Oddiy algebraik ifodalarni mantiqan soddalashtira olish; -Algebraik mulohazani tahlil qila olish;	4
3.3. Geometriya va o‘lchashlar	-Geometrik shakllarning perimetr va yuza va hajmini hisoblash; Shakl va o‘lchash natijalarini matematik formula bilan ifodalash; turli shakllarning perimetri va	2

	yuzasini taqqoslash; berilgan o'lchovlar asosida geometrik masalalar yechish; -O'lchash natijalarini jadval, diagramma yoki chizma orqali ifodalash; o'lchash natijalarini solishtirish;	
3.4. Ehtimollik nazariyasi va ma'lumotlar bilan ishlash	Hodisa ehtimolligini tushunish; turli ma'lumotlar to'plami va ehtimollik natijalarini taqqoslash; Ma'lumotlarni turli shakllarda (jadval, diagramma, grafik) o'qiy olish va statistika ko'rsatkichlari orasidagi farqni tushunish;	2
4. Tabiiy fanlar		
4.1. Yer yuzasi, tabiiy hududlar, iqlim, landshaft, tabiiy resurslar	- Qit'a va okeanlar, asosiy dengizlar. Tabiiy qirralar: tog', dasht, vodiy, cho'l. Suv resurslari: daryolar, ko'llar, yer osti suvlari aniqlash; - Tabiiy hududlarning o'ziga xos xususiyatlari: iqlim, o'simlik va hayvonot dunyosi tushunish; Landshaftni shakllantiruvchi tabiiy jarayonlar. Mineral resurslarni farqlash;	2
4.2. Hayotiy tizimlar va organizmlar	-Organizm va ekologik tizimlar asosiy xususiyatlarini aniqlash; Ekologik muhit va inson faoliyati bog'liqligini tushunish; Sog'lom turmush tarziga doir qarorlarni biologik asoslar bilan baholash; -O'simlik va hayvon organizmlarining asosiy qismlarini nomlay olish; Tirik organizmlarning klassifikatsiyasini amaliy vaziyatda qo'llash;	2
4.3. Fizik xossalar. Energiya. Yorug'lik. Harakat. Kuch.	- Tabiiy hodisalarning qanday omillar ta'sirida yuz berishini izohlaydi. Berilgan jismlarni fizik xossalariga ko'ra guruhlariga ajratish; Tabiiy hodisalar va jarayonlarning asosiy tushunchalarini, tabiiy modda va energiya xossalarini aniqlash; Hodisa va jarayonlarni tushunish;	1
5. Tarbiya		
5.1. Shaxsiy tarbiya va axloqiy qadriyatlar.	- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini hamda to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni ajrata olish;	1
5.2. Ijtimoiy va fuqarolik tarbiyasi.	- Fuqarolik hissi va daxldorlik prinsiplarini real vaziyatlarda qo'llash, fuqarolik huquq va burchlarini farqlash;	1
Jami		40 ta

**Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun
sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

1. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	10

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir asosiy dalillar, qonunlar, ta'riflar, formula va hodisalarni yoddan bilish, tanish, esga olish.	22
2	Qo'llash	Dalil va qonunlarni tanish vaziyatlarda qo'llash, hisob-kitob qilish, grafik/diagramma tahlil qilish.	23
3	Mulohaza qilish	Notanish vaziyatda qo'llash, tahlil-sintez, sabab-oqibat bog'lanish, izohlash, baholash.	5

V. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Aydarova U.B, Azizova N.Q: “O‘qish savodxonligi” darslik 1-sinf “Novda” Toshkent - 2024 y.
2. Aydarova U.B, Toirova M.E: “O‘qish savodxonligi” darslik 2-sinf “Novda” Toshkent - 2024 y.
3. Aydarova U.B, Toirova M.E: “O‘qish savodxonligi” darslik 3-sinf “Novda” Toshkent - 2023 y.
4. Aydarova U.B, Toirova M.E: “O‘qish savodxonligi” darslik 3-sinf “Novda” Toshkent - 2023 y.
5. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S., Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov: “Ona tili” darslik 6 - sinf Respublika ta’lim markazi Toshkent – 2022 y.
6. Mavlonova K.M, Hakimova N.S, Siddiqov M.R., Qo‘ldosheva S.H: “Ona tili” darslik 5-sinf. (I, II qism): “Novda” Toshkent – 2024 y.
7. Yo‘ldoshev Q.B., Olimjonov O.O., Yusufjonova N.N., Qambarova S.Q., To‘xliyeva D.B.: “Adabiyot” darslik 5-sinf (I, II qism): “Novda” Toshkent - 2024 y.
8. Mirzayeva Z., Jalilov K.: “Adabiyot” darslik 6-sinf Respublika ta’lim markazi: Toshkent – 2022 y.
9. Toirova M. E, Boynazarova D. D: “Ona tili” darslik 3- sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y.
10. Toirova M. E, Boynazarova D. D: “Ona tili” darslik 4- sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y.
11. Repyova I. V: “Matematika” darslik 3-sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y
12. Repyova I. V: “Matematika” darslik 4-sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y
13. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 1- sinf “Novda”: Toshkent - 2024y.
14. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 2- sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.
15. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 3- sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.
16. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 4- sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.
17. Tigay O.E, .Malikova Y.V, Kosyanenko S.V: “Tabiiy fan” darslik 1-sinf “Novda”: Toshkent - 2024y.
18. Tigay O.E, .Malikova Y.V, Kosyanenko S.V: “Tabiiy fan” darslik 2-sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.

19. Tigay O.E, .Malikova Y.V, Kosyanenko S.V: “Tabiiy fan” darslik 3-sinf “Novda”: Toshkent – 2023 y.

20. Tigay O.E, .Malikova Y.V, Kosyanenko S.V: “Tabiiy fan” darslik 4-sinf “Novda”: Toshkent – 2023 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K.: “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” G‘.G‘ulom: Toshkent – 2022 y.

2. Begmatov E.A., Madvaliyev A.R., .Odilov Y.R. “O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati” “Kafolat print company”: nashriyoti Toshkent – 2023y.

3. Madvaliyev A., Mahkamov N., Xudoyberganova D., Odilov O.: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2021y.

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.

3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.

4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.